

GO'RI AMIR MAQBARASI*Toshkent davlat pedagogika universiteti**Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 2-kurs**201-guruh talabasi***Siddiqov Husan**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Go'ri Amir maqbarasi haqida uning barpo etilgandan to hozirgi kunga qadar jarayonlari uning rekonstruksiya jarayonlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, maqbara, me'morchilik, ilm-fan, marifatli, ko'k gumbazli,*

Amir Temur tarixda buyuk sarkarda, markazlashgan davlat hukmdori va mo'g'ullarni Movarounnahr diyorida quvib chiqargan jasur sarkarda sifatida tarixda qoldi. Shuningdek, Amir Temur tarixda ilm-fan va madaniyatni, me'morchilikni yuksaltirgan, ko'plab shaharlarni qayta ta'mirlab, mamlakat obodonchiligini yuksaltirgan hukmdor. Amir Temur davlatining dovrug'i nafaqat yirik harbiy yurishlar bilan cheklanibgina qolmay me'morchilik, ilm-fan va madaniyatning yuksak rivojlangani bilan butun dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdi. Amir Temurning shaxsi Sovet ittifoqi davrida qoralandi. Uni tarixdagi zolim hukmdor ko'plab odamlarni qatl ettirgan hukmdor deb xalqimiz ongiga singdiriladi. Amir Temurning buyuk sarkarda va ma'rifatli hukmdor ekanligi, uni madaniyat, ilm-fan va me'morchilikni yuksaltirgani haqida sovet davrida ma'lumot berilmadi. Natijada Amir Temur shaxsi qoralanib, uning tariximizdagi mavqeyiga, shon-shuhratiga putur yetkaziladi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin Amir Temur shaxsi oqlanib, tarix yana qayta jonlandi. Amir Temur shon-shuhrati qayta tiklandi. Davlatimiz tomonidan Amir Temurning shaxsi abadiylashtirildi. Amir Temur hurmati, uning qanday buyuk sarkarda, ma'rifatli hukmdor bo'lganligini butun dunyo bilib qo'ydi. Amir Temur shaxsi haqida chet el tarixchi olimlari ko'plab asarlar yaratadi. Mustaqillik sababli bu tarixiy shaxsning xotirasi abadiylashtirildi.

Amir Temur davrida qurilgan bino va chorbog'larning ko'pgina qismi bizning davrimizgacha saqlanmagan. Saqlanib qolganlari ham o'sha davr me'morchiligining noyob durdonalaridir. Bular jumlasiga, Shohi Zinda yodgorligi, Bibi Xonim masjidi, maqbarasi va madrasa qoldiqlari, Shayx Burxoniddin Sag'oijiy maqbarasi, Go'ri Amir ansamblining asosiy qismi, Sharisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Shamsiddin kulol maqbarasi, Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy xonaqohlarini kiritish mumkin. Shulardan Go'ri Amir maqbarasi Temuriylar davri me'morchiligining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Go'ri Amir O'rta Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi. Maqbara qurilishi Amir Temur buyru'giga asosan 1403-yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan hamda temuriylar xilxonasiga aylantirilgan.

Maqbara, o'rta asr Samarqandining janubiy-sharqiy qismida, Temurning nabirasi Muhammad Sulton tomonidan, XIV asrning oxirida bino qildirgan majmua qoshida tiklangan. Qurilishi tarixi Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyo sohillariga qilgan uzoq safaridan qaytib kelayotganda, to'satdan kasal bo'lib vafot etadi. Shahzodaning jasadi Samarqandga olib

kelinib, ansamblning janub tomonidagi ayvoni orqasidagi dahmaga dafn qilinadi. Amir Temur shahzodaga atab maqbara qurish haqida farmon beradi. Shundan keyin daxma ustiga sakkizyoqli bino quriladi. Amir Temur vafotidan keyin Shohruh Mirzo Hirotni poytaxt qilib o'g'li Mirzo Ulug'bekni esa Samarqand hokimi qilib tayinlaydi. U mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi. Mirzo Ulug'bek buyuk bobosiga hurmat yuzasidan sakkizyoqli maqbarani temuriylar avlodi dafn qilinadigan maqbaraga aylantiradi. Maqbara bitgach, Amir Temurning ma'naviy ustoz Mirsayid Barakaning jasi shu maqbaraga ko'chiriladi va Sohibqironning bosh tomoniga dafn etiladilar. Ba'zi rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur pironing oyoq tomoniga dafn qilinishini vasiyat qilgan. Maqbarada Mironshoh va Shohruhlarning ham dafn qilingan.

Ulug'bek davrida maqbara ichi yangidan bezatiladi, maqbara sahniga daxmalar qo'yilib, atrofi nafis marmar toshdan panjara qilinadi. Maqbaraga 1424-yildan boshlab uning sharq tomoniga taqab qurilgan ko'p gumbazli galereyadan kiriladi. Maqbaraning g'arb va janub tomoniga yondosh qilib qurila boshlagan, lekin chala qolgan ulkan imoratlar Mirzo Ulug'bek hukmronligining so'nggi-yillariga to'g'ri kelsa kerak. Buyuk astronomning jasi ham shu xilxonaga dafn qilingan. Muhammad Sulton majmuasidan faqat peshtoqigina saqlangan. Bu peshtoq mohirlik bilan ishlangan bo'lib, koshinlar bilan devor fonida yaqqol ko'rinib turadi. Koshinlar orasiga binoni qurgan usta — Muhammad binni Mahmud Isfahoniyning nomi va „Dini jannat dili poklarnikidir“, deb jimjimador qilib yozib qo'yilgan. g'ishtin ustunlar bezagida girih deb ataluvchi geometrik shakllarga asoslanib, nafis qilib ishlangan kompozitsiya asosiy o'rinni egallaydi. Gumbazda jez, lojuvard va tillo suvlari ishlatilgan. Dastlab maqbaraga shimoliy eshikdan kirilgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan sharqiy eshik 1425-yilda ochilgan, chunki Mir Sayyid Barakaning bosh tomonlaridan kirishni Mirzo Ulug'bek hurmatsizlik deb hisoblagan. 1868-yilda Chor Rossiyasi istilosi-yillarida maqbara darvozalari o'g'irlab ketilgan. Sohibqiron Amir Temur saroyi darvozalaridan biri Londonda, yana biri Ermitajda va uchinchi eshik esa O'zbekiston madaniyati va tarixi davlat muzeyi fondida saqlanmoqda. Hovlining sharq tomonidagi devor ortida Muhammad Sulton madrasasining qoldiqlari ko'rinib turadi. Chorsu hovlisining atrofiga ikki qavatli hujralar tushirgan.

Maqbara dizayni devorlariga zangori, havo rang va oq sirli koshinlar qoplangan, bu koshinlar geometrik shaklda terilib, arabcha xat bitilib, ustalik bilan ishlangan. Me'mor bir-biriga mos shakllardan foydalanib, binolarning katta sathlarini mohirlik bilan bezagan. Maqbaraning tashqi tomoni bunyod qilinganda uning gumbaziga katta ahamiyat berilgan. Gumbaz ostki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr bo'lsada, uning og'irligi sezilmaydi. Gumbazning rang-barang qilib ishlanishi katta ahamiyatga ega. Gumbazda havo rang ko'proq ishlatilgani uchun bu rang gumbazning egri chiziqli qobirg'alarida tovlanib, quyoshda charaqlab, go'yo osmonga qadalib turadi. Gumbazning usti sirli koshinlar bilan qoplangan. Sharafalarida ham shunday koshinlardan hajmi bir-biriga mos qilib ishlangan chiroyli jimjimalar bor. Maqbaraning tashqi gumbazi yodgorlikning tashqi qiyofasi yanada salobatli bo'lishi uchun uning ustiga ikkinchi gumbaz o'rnatilgan. Galereya zallarining shaklini devorlar qoldig'idan, devorga ishlangan bezaklarni esa sharafa parchalaridan bilsa bo'ladi. Inshootning qanchalik katta bo'lganligini uning g'arb tomonida

bitmay qolgan majmuaga qarab aniqlash mumkin. Katta zaldan uni to'rt tomoniga qachonlardir qo'yilgan to'rtta ravog'idan bittasigina saqlanib qolgan. Eni 10 metrlik ravoqning ikki tomonidan yo'lak o'tgan. Yo'lakning shimol tomonidan qo'sh gumbazli ikki qavatli binoga, janub tomondan esa galereyaga kiriladi. Go'ri Amir va dahmasiga shu galereyadan o'tiladi. Demak, maqbara atrofi binolar bilan o'ralgan ekan.

Maqbara g'oyatda nafis bezatilgan. Devorning pastki qismida ko'kimtir shaffof oniks toshidan ishlangan izora bor. Oniksning choklari ko'kimtir toshlar terib bezatilgan. Maqbaraga rangdor oynalar solingan panjarali darchadan yorug'lik tushadi. Shu oynalardan o'tib tushgan quyosh nuridan maqbara ichi rang-barang tovlanib turadi. Maqbaraning o'rtasiga o'rnatilgan sag'analar ustida Temuriylarga bag'ishlangan yozuvlar bor. Shular orasida Amir Temurning qabri ustiga qo'yilgan to'q yashil rangli nefrit tosh diqqatni o'ziga jalb etadi. Mirzo Ulug'bek 1425-yilda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonganda qo'lga kiritilgan o'ljalarda ichida ikki bo'lak nefrit ham bo'lgan. Shu ikkala toshni yaxshilab ishlab, bir-biriga ulab, Amir Temur qabri ustiga quyilgan. 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligini zabt etgan vaqtida (o'sha vaqtda Samarqand Buxoro xonligiga qarar edi) Amir Temur qabri ustidagi toshni Mashhadga olib borishga buyruq bergan. Lekin, shakkok bo'lishdan cho'chigan Nodirshoh bu niyatidan qaytgan va o'sha zamon uchun uzoq va qiyin bo'lgan safarlardan keyin toshni yana qaytadan joyiga keltirib qo'ydirgan. Maqbaraning sharq tomonidagi ravoqda pastga tushadigan zina bor. Bu zinadan maqbaraning ostki qavatidagi dahmaga tushiladi. Ostki qavatdagi binoning shipi o'n ikki qirrali gumbaz qilib qiya ishlangan, ichki bezaklari juda sodda. Temuriylarga qo'yilgan sag'analar yuqori qavatda qanday tartibda bo'lsa, bu yerda ham shu tartibda. Har qaysi qabr usti marmartosh bilan qoplangan. Maqbaradagi har bir naqsh bezak bir-biri bilan uyg'unlikda bunyod etilgan bu esa maqbaraning yanada jozibali va mahobatli qilib ko'rsatgan. Maqbara har bir naqshi, bezaklari me'morlar tomonidan mukammallik bilan bunyod etilgan hisoblanadi. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan.

Maqbara mustaqillikdan keyin davlat muhofazasiga olinib, ta'mirlash ishlari olib borildi. Maqbara yana qayta oldingi holatiga qaytariladi. Mustaqillik yillarida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug'bek tavalludi ning 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta'mirlash ishlari olib borildi. XIX asr ning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

Xulosa qilsak Temuriylar nafaqat davlatchiligi bilan tarixda qoldi. Balki me'morchiligi, ilm-fan va madaniyatimizga qo'shgan hissasi bilan butun dunyo xalqlarining tarixiy xotirasida qoldi. Temuriylar davri me'morchiligining yuksakligi o'sha davr Temuriy hukmdorlarining yuksak ma'rifatli, ma'naviyatli, ilm-fan homiysi bo'lganini ko'rsatadi. Temuriy hukmdorlari tomonidan bunyod etilgan bu me'moriy obidalar hozirgi kunda butun dunyo xalqlarini yurtimizga kelishga chorlamoqda. Yurtimizga kelgan har bir turist bu me'morchilik namunalari ko'rib, ajdodlarimizning o'tmishda qay darajada buyuk shaxslar bo'lganini, butun dunyoni hayratga solganini ko'rib, yurtimizga bo'lgan hurmatlari yanada ortmoqda. Zero, o'tmishi buyuk xalqning kelajagi ham buyukdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Abdulahad Muhammadjonov, Amir Temur va temuriylar saltanati “Qomuslar bosh tahririyati”. Toshkent. 1994.
3. <https://meros.uz/object/gori-amir-maqbarasi>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Go%CA%BBri_Amir
5. SAMARQANDNING TARIXIY OBIDALARI VA MUZEYLARI BO‘YICHA EKSKURSIYA MATNLARI, 2010
6. <https://www.sayyoh.com/diqqatga-sazovor-joylar/samarqand-amir-temur-maqbarasi>